



**hokimligi  
mактабгача ва мактаб та’лими  
бoshqarmasi**  
**maktabgacha va  
maktab ta’limi bo‘limi tasarrufidagi  
—umumiy o‘rta ta’lim mактabi  
2-“\_” sinf rahbari**

**ning  
2023-2024-o‘quv yili uchun**

**SINF SOATLAR  
ISH REJASI VA  
DARS ISHLANMALARI**

## Tushuntirish xati

Bolalarimizni birovlarning qo‘liga berib qo‘ymasdan, ularni o‘zimiz tarbiyalashimiz lozim.

Shavkat Mirziyoyev

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 5-sentyabrdagi PQ-3931-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 6-iyuldaggi 422-son qarorida belgilandi. 2023-2024-o‘quv yilidan boshlab 1-11-sinflarda haftaning juma kunidagi birinchi darsni sinf rahbarlari va tegishli mutahassislar tomonidan “Sinf soati” sifatida o‘tilishi yo‘lga qo‘yildi. **Ma’lumki, sinf rahbari o‘z sinfidagi o‘quvchilarining bevosita ta’lim-tarbiya jarayoni, ya’ni darslar davomida hamda darsdan keyingi faoliyatini nazorat qilishga mas’ul shaxs hisoblanadi.**

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida sinf rahbari faoliyati O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta’lim sohasidagi qarorlari, Xalq ta’limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan tegishli me’yoriy hujjatlar va Xalq ta’limi vazirligining 2020-yil 30-iyuldaggi 180-sonli buyrug‘i 2-ilovasi bilan tasdiqlangan **“Ta’lim muassasalari sinf rahbari to‘g‘risida Nizom”** asosida tashkil etildi.

Mazkur dastur va metodik qo‘llanmayuqorida nomlari keltirilgan ta’limga oid huquqiy va me’yoriy hujjatlarga, shuningdek, umumiy o‘rta ta’limning uzluksizligi va izchilligiga, zamonaviy metodologiyalarga asoslangan.

**Dasturning maqsadi** — Sinf soatlarni mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, zamon talablariga javob beruvchi, ma’naviy barkamol, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxslarni tarbiyalashdan iborat.

### Sinf soat dasturining vazifalari:

milliy, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlар asosida o‘quvchilarни tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish; o‘quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda ta’lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta’minlashdan iborat.

Bugungi kunda axborot oqimining tezligi natijasida hayotimizga ommaviy madaniyatni salbiy ta’sirlari ham sezilmoqda. Bu masalani o‘quvchilarining ijtimoiy hayotlari misoldida ko‘rishimiz mumkin. Ba’zida ota-onalar tomonidan bolalarning beodobligi, o‘z fikrini og‘zaki yoki yozma tarzda aniq ifodalay olmasligi, mas’uliyatning yetishmasligi, atrofidagilar bilan kelisha olmasligi, o‘ziga tegishli bo‘lgan mablag‘larni to‘g‘ri taqsimlay olmasligi haqidagi fikrlarni eshitib qolamiz. SHuning uchun ham dasturni ishlab chiqishda xaqlar va milliy tajribaga asoslanilganligini alohida ta’kidlab o‘tish joizdir.

**“Ta’lim muassasalari sinf rahbari to‘g‘risida Nizom”**ga asosan “Sinf rahbari - Ta’lim muassasasining Sinf soati tizimidagi tayanch pedagoglardan biri bo‘lib, o‘ziga biriktirilgan sinf o‘quvchilarining amalda belgilangan ta’lim va tarbiya olishlarini tashkil etadi.” SHu nuqtai nazardan olib qaraganda bugungi kunda ta’lim muassasalari **sinf rahbarlari faoliyatida quyidagilarga o‘xshash muammolar ko‘zga tashlanmoqda:**

- Ayrim sinf rahbarlari tomonidan o‘quvchilarни tarbiyalash jarayonida o‘z oldilariga qo‘yan maqsad va vazifalarining to‘g‘ri tashkil etilmaganligi;
- Sinf soatlarning aniq o‘quv-mavzu reja asosida tashkil etilmayotganligi;
- Ta’lim-tarbiya va ma’naviy-ma’rifiy sohaga oid qonunlar va qonunosti hujjatlarning ko‘pchiligidan o‘qituvchi va sinf rahbarlarining yetarli darajada xabardor emasligi;
- Ba’zi sinflardagi muhitning qoniqarli emasligi, ahil va mustahkam jamoaning shakllanmaganligi;
- Ayrim ta’lim muassasalarida davomatning pastligi, muntazam dars qoldiruvchi o‘quvchilar mavjudligi;
- Ba’zi sinflardagi o‘quvchilarda kundalik daftarlarining mavjud emasligi, borlarining ham sinf rahbari tomonidan nazorat qilinmaganligi;
- Ayrim o‘quvchilarning darslarga tayyorgarliksiz, hatto darsliklarsiz ishtirok etishlari;
- O‘quvchilar internet va mobil telefon qaramligining jismoniy va ruhiy xatarlari haqida yetarli tushunchalarga ega emasliklari;
- Voyaga yetmaganlar o‘rtasida turli zararli oqimlar ta’siriga tushib qolish, jinoyatchilik va huquqbazarlik holatlarining uchrayotganligi;
- O‘quvchi tarbiyasida muhim o‘rin tutadigan kompetensiyalarga erishilmaganligi;

- Ba’zi o‘qituvchi va tarbiyachilarimizda kasbiy kompetensiyalar yetishmasligi;
- Sinf soati ishlari ta’sirchanligining pastligi;
- Ota-onalar bilan samarali muloqotning yo‘lga qo‘yilmaganligi;
- Huquqbuzarlik, mobil telefon va internet qaramligi, narkomaniya, tamaki va alkogol mahsulotlarini iste’mol qilishga qarshi kurash hamda oldini olish bo‘yicha samarali chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqilmaganligi.

Shu o‘rinda masalaning muhim bir jihatiga e’tiboringizni qaratmoqchimiz. **Bugungi kunda umumta’lim maktablarida Sinf soatlar amalda qanday tashkil qilinmoqda?**

- Bugungi kundagi aksariyat hollarda Sinf soatlar quruq gaplardan iborat bo‘lib, Sinf soat mavzularidan chetga chiqib ketiladi;
- Qaysidir o‘quvchining xulqi muhokamaga qo‘yiladi;
- O‘quvchilarning fanlarni o‘zlashtirishlari va davomatlari muhokama qilinadi;
- Qandaydir tadbirlarga tayyorgarlik va sinf muammolarini hal etish kabi masalalar xususida so‘z boradi.

#### **Sinf soatlar qanday bo‘lishi kerak?**

- Ta’lim jarayoni alohida, mustaqil darslardan tashkil topgani kabi Sinf soatlar ham yaxlit Sinf soati usullar, ta’sirchan vositalar yordamida amalga oshiriladi.
- Sinf rahbari ushbu tadbirlarni o‘tkazishga doir aniq ish rejasiga ega bo‘lishlari lozim.

Bugungi shiddatli davr barchamizdan axloqiy va ma’naviy jihatdan Sinf soati ishlarni yanada kuchaytirish lozimligini talab etmoqda. Ma’naviyat yo‘q ekan, inson ongli ijtimoiy shaxs bo‘la olmaydi. SHuning uchun ham sinf rahbarlari va butun o‘qituvchilar jamoasi oldida o‘quvchilarga milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida hayot kechirishni o‘rgatishdek muhim vazifa turadi. Hozirgi globallashuv jarayonlari kuchaygan, turli g‘oyalar o‘rtasidagi kurash keskinlashgan, “ommaviy madaniyat” xurujlari butun dunyoga tarqalib borayotgan, internet tarmog‘i orqali uzatilayotgan buzg‘unchi axborotlar inson qalbi va ongini o‘ziga qaram qilishga urinayotgan tahlikali zamonda kelajagimiz bo‘lgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarini izlash davlat siyosati darajasidagi masalaga aylangan.

Sinf soati ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi bo‘lgan barcha g‘oyalar qaytadan ko‘rib chiqilishi, asosiy e’tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to‘plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi. Inson shaxsining kamol topishi esa juda murakkab va uzlusiz jarayon davomida shakllanadi. Uning tarbiyasiga ota-onasi, mактаб, mahalla, do‘stlari, jamoat tashkilotlari, atrof-muhit, internet, ommaviy axborot vositalari, san’at, adabiyot, tabiat va hokazolar bevosita ta’sir ko‘rsatadi. SHuning uchun ham barcha sinf rahbarlari o‘z Sinf soati faoliyatlarida ana shu mezonlarni hisobga olishlari shart.

Sinf soatlar o‘quvchilarda shakllangan tayanch kompetensiyalarni amaliyotga tadbiq etish maydoni hisoblanadi. To‘g‘ri tashkil etilgan Sinf soatlar o‘quvchilarda fanlar orqali shakllangan tayanch kompetensiyalarni ijtimoiy hayotda tadbiq eta olishlari uchun imkoniyat yaratib beradi.

O‘quvchilarda hulq-odob madaniyatiga rioya qilish, fikrini erkin ifodalash, notiqlik qobiliyatini yuksaltirish, axborotlardan to‘g‘ri va samarali foydalanish, shu bilan birga bu boradagi xalqaro hamda milliy qonunchilik qoidalariga rioya qilishni tarbiyalash Sinf soatlarning asosiy maqsadlaridan birdir. SHuningdek, Sinf soatlar orqali o‘quvchilarda to‘g‘ri kasb tanlash, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, bo‘sh vaqtini to‘g‘ri taqsimlash, o‘z iqtidorini rivojlantirish uchun turli to‘garaklarni to‘g‘ri tanlash, tayyor ish joylarida ishslash emas, balki o‘zi ish joylarni yaratishi kabi qobiliyatlar shakllantiriladi.

Sinf soat dasturlari oddiydan murakkablikka tamoyili asosida shakllantirilgan bo‘lib, quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Vatanparvarlik; axloqiy, huquqiy, jismoniy, gigienik, ekologik hamda estetik tarbiya shuningdek, o‘quvchilarni to‘g‘ri kasb tanlashga yo‘naltiradi. Sinf soatlarning mazkur yo‘nalishlari O‘zbekiston Respublikasida ta’limning uzlusizligi, uzviyligi, o‘quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularda yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi.

SHuningdek, mazkur kompetensiyalar har bir Sinf soatning mazmunidan kelib chiqqan holda shakllantiriladi.

Umumta’lim maktablarining 1-11-sinf o‘quvchilari uchun tuzilgan “Sinf soatlar uchun namunaviy mavzular rejasи” mazmunan Sinf soati-axloqiy hislatlarni shakllantirish bilan bir qatorda yurtimizda nishonlanadigan umumxalq bayramlari va muhim tarixiy sanalar asosida tuzildi. Bundan tashqari mazkur rejada fan oyliklari davomida o‘quvchilar uchun Sinf soati dars soatlarini o‘tishda nimalarga e’tibor berish kerakligi e’tiborga olingan.

Mazkur dastur va qo‘llanmada bugungi kunda sinf rabarlari uchun amaliy va uslubiy yordam sifatida Respublika Ta’lim markazi mutaxassislari va amaliyotchilar hamkorligida “Sinf soat”larning mashg‘ulot ishlanmalari tavsiya etiladi.

“Sinf soat”lar rejasidagi 8 soatlik “Yo‘l harakati qoidalari”ga doir mavzular dasturi va dars ishlanmalari mazkur qo‘llanmada aks ettirilmagan.

Umumta’lim maktablarining o‘quvchilari uchun ishlab chiqilgan “Sinf soat” mashg‘ulot ishlanmalarida mazmunan o‘quvchilarda Sinf soati-axloqiy xislatlarni shakllantirish va mustahkamlash maqsadida donolar hikmatlariga va milliy qadriyatlarimizga hurmat, vatanparvarlik, insonparvarlik, jismoniy tarbiya, shaxsiy gigiyena, ozodalik, kiyinish odobi, bola huquqlari, tabiatni asrash, iqtisodiy tarbiya, salomlashish va muomala odobi, kitobni sevish kabilar bilan bir qatorda yurtimizda o‘tkaziladigan umumxalq bayramlari va muhim sanalarni nishonlashda nimalarga e’tibor berish lozimligi to‘g‘risida tavsiyalar berilgan.

Sinf soatlarni quyidagi tartibda tashkil qilish mumkin:

Kun shiori:

I. Kirish;

II. Asosiy qism: hikoya, suhbat,ma’ruza, guruhlarda ishlash;

III. Yakuniy qism.

Sinf soatlarda foydalish uchunmavzuga doir adabiyotlar ko‘rgazmasi tashkil etiladi. Jarayonni ochiq muloqot, davra suhbati, bahs-munozara, treninglar va boshqa har xil noan’anaviy tarzda tashkil etish mumkin.

(Izoh: Taqdim etilayotgan Sinf soatlар dasturiga Umumta’lim maktablarining sinf rahbarlari metod kengashi qaroriga ko‘ra 15 % gacha o‘zgartirish kiritilishi mumkin.)

**“Sinf soati” mashg‘ulotlarining 2023-2024-o‘quv yili uchun o‘quv-mavzu rejasi**  
**2-SINF**

Nº	O‘tiladigan mavzular	Soat	Rejada	Amalda
1.	Ona yurtim-oltin beshigim	1		
2.	Odobli bola-elga manzur	1		
3.	Yo‘l harakat qoidalarini vujudga kelish tarixi (Yo‘l harakat qoidalari)	1		
4.	Ustozga hurmat (1 oktyabr – O‘qituvchilar va murabbiylar kuni munosabati bilan).	1		
5	Ona maktab bag‘rida	1		
6	Ona tabiatni asraylik. (4-oktabr butun jahon hayvonlarni himoya qilish kuni munosabati bilan)	1		
7	Xavfsizlik qoidalarini bilamizmi?	1		
8	Ona tilim – jonu dilim (O‘z.Res. “Davlat tili haqida”gi Qonun qabul	1		
9	Piyodalar va ularning tashkiliy jamlanmasida harakatlanish. (Yo‘l harakati qoidalari)	1		
10	O‘zbekiston Respublikasining bayrog‘i (18 noyabr - O‘z.Res. Davlat bayrog‘i qabul qilingan kun munosabati bilan).	1		
11	Tartibga solish vositalari va ahamiyati. (Yo‘l harakati qoidalari)	1		
12	Bizning mактабдаги vazifalarimiz	1		
13	Baxtimiz qomusi (8 dekabr – Konstitutsiya kuni munosabati bilan).	1		
14	O‘zbekiston Respublikasi madhiyasi (10 dekabr - O‘z.Res. Davlat madhiyasi qabul qilingan kun munosabati bilan).	1		
15	Yo‘lni kesib o‘tish. To‘xtash joyi. (Yo‘l harakati qoidalari)	1		
16	Biz yangi yilni kutib olamiz (Yangi yil bayrami yaqinlashishi munosabati bilan).	1		
17	Vatanparvar ajdodlarimiz (14 yanvar – Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan).	1		
18	To‘maris kim?	1		
19	Maxsus transport vositalari va turlari. (Yo‘l harakati qoidalari)	1		
20	Buyuk ajdodlarimiz (Navoiy va Bobur tavallud kunlari oldidan).	1		
21	Do‘stlik – bebaho ne’mat. (2 mart O‘zbekiston BMTga qabul qilingan kun munosabati bilan )	1		
22	Onalar - uyimiz charog‘boni (8 mart – Xotin-qizlar kuni munosabati bilan).	1		
23	Oilada mening o‘rnim va vazifam.	1		
24	Transportda yurish qoidalari (Yo‘l harakati qoidalari)	1		
25	Milliy an’analaramiz – g‘ururimiz ( 21 mart – Navro‘z do‘stlik bayrami munosabati bilan).	1		
26	Milliy o‘yinlar	1		
27	Qonunlar nima uchun kerak?	1		
28	Ogohlantiruvchi belgilar. (Yo‘l harakati qoidalari)	1		
29	Yurtimiz favvoralari( 1-may-favvoralar kuni munosabati bilan)	1		
30	Ona Vatan – aziz! (Xotira va qadrlash kuni oldidan).	1		
31	Yo‘l-transport xodisalari va ularning kelib chiqish sabablari. (Yo‘l harakati qoidalari)	1		
32	Kitob bizning do‘stimiz.	1		
33	Yoz-o‘tadi soz	1		
34	Yozgi rejalar	1		
	Jami:	34	soat	

Sana: " " 20 -yil. Sinf: \_\_\_\_\_ Sinf rahbari: \_\_\_\_\_

1-mavzu: Ona yurtim-oltin beshigim

### I. Kirish:

**Sinf soati mashg'ulotning maqsadi:** Yurt, ona Vatan haqidagi tushunchalarni o'quvchilar ongiga yetkazish. Vatanga muhabbat tuyg'usini uyg'otish; o'quvchilar nutqini o'stirish.

**Kompetensiya — TK-1:** doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayoti davomida mustaqil o'qib-o'rganish, kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o'z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko'nikmalarini egallashadi;

**TK-2:** jamiyatda bo'layotgan voqeja, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish hissini oshiradi

**Mashg'ulot turi:** yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi, amaliy, nazariy, aralash, noan'aviy, ananaviy.

**Mashg'ulot uslubi:** tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, ko'rgazmali va boshqalar.

**Mashg'ulot metodi:** guruhlarda ishslash, "kim epchil-u, kim chaqqon", "ko'rsam tezroq o'rganaman", "muammo va yechim" shu kabi metodlar.

**Mashg'ulot johozi:** mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

**Mashg'ulotning borishi:**

**Tashkiliy qism:** a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

**Uyga vazifani so'rash:** a) Savol – javob o'tkazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.



### II. Asosiy qism:

Bizning Vatanimiz O'zbekiston! O'zbekiston –muqaddas Vatan. Aziz bobolarimiz ota-onamiz tug'ilib o'sgan maskan. Farzandlarimiz shu zaminga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbida shu muborak zaminning har bir qarichiga mehru-muhabbat uyg'otish bugungi kunning eng ustuvor fazilatlardan biridir. Biz uchun Vatan bitta! Mamlakat bitta! Bizning go'zal yurtimiz, noyob tabiatimiz, betakror Vatanimiz, bag'ri keng va ollyjanob xalqimiz bor.

Men shu diyorda yashayman. Shu yurtda tug'ilib o'sdim. O'zbekiston juda go'zal diyor. O'zbekistonda go'zal bog'lar, yuksak tog'lar, bepayon dalalar, zilol suvlar, zamonaviy qishloqlar va bir-biridan go'zal shaharlar ko'p. O'zbekistonimizning tabiatini xilma-xil bo'lib, go'zallikda tengi yo'q. O'zbekiston jannatmakon diyori.

**2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini** amalga oshirish, erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, tub islohot jarayonlarini yangi bosqichga ko'tarish, inson huquq va manfaatlari, uning qadri, sha'ni va g'ururini yetakchi o'ringa olib chiqish ustuvor vazifamizga aylangan hozirgi vaqtida yurtimizda tinchlik va barqarorlikni saqlash, davlatimizning hududiy yaxlitligi va bo'linmasligi, sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlash, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik va hamjihatlikni mustahkamlashga intilish ko'p millatli xalqimizni yanada birlashtiradigan, yuksak marralarga safarbar etadigan beqiyos kuchga aylanib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyevning 2019 yil 19-martdagi videoselektoroda ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yilga qo'yish bo'yicha ilgari surgan 5 ta muhim tashabbus:	
1	Yoshlarning misliga, rassomlik, adaptabilit, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga cheqarishga sizmat qiladi.
2	Yoshlarning qiziqishlarini chiqarish, shuning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan.
3	Aholi va yoshlar o'rjasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samaralliy foydalanshuni taskhil etishiga yo'naltirilgan.
4	Yoshlar ma'naviyatini qo'shish, ular o'rjasida kitobxonikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimi ishlarni taskhil etishiga yo'naltirilgan.
5	Xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutadi.



Ona Vatanimiz mustaqilligini keng nishonladik. Darhaqiqat, asrlarga ta'tigulik bu yillar mobaynida Yurtboshimiz rahnamoligida xalqimizning farzandlar iqbolini o'ylab, bir maqsadu muddao bilan, bir tanu bir jon bo'lib amalga oshirilgan beqiyos ezgu amallari natijasida bugun mamlakatimizni dunyo tan olmoqda. O'z tanlagan yo'li, o'z aytar so'zi va amali bilan jahonni lol qoldirayotgan davlatimiz tobora barkamollik sari intilayapti. Savol:

Biz ham barkamol avlod bo'lishimiz uchun o'zimizda qaysi fazilatlarni tarbiyalamog'imiz darkor? (...).

Tarona guruhining "O'zbekiston" qo'shig'i tinglanadi.

### III. Yakuniy qism:

Dars yakunida o'quvchilar bilan birgalikda olgan bilimlarni umumlashtirilib, savollar bilan mustahkamlanadi. O'quvchilar rag'batlantiriladi.

Sana: " " 20 -yil. Sinf: \_\_\_\_\_ Sinf rahbari: \_\_\_\_\_

2-mavzu: Odobli bola-elga manzur.

### I. Kirish:

**Mashg'ulotning maqsadi:** O'quvchilarga ezgu fazilatlar haqida ma'lumot berish, ajdodlarimizning ibratli fikrlari bilan tanishtirish; o'quvchilarini atrofdagilarga yaxshilik va faqat yaxshilik qilishga o'rgatish. O'quvchilarda ezgu fazilatlarni kamol toptirish.

**Kompetentsiya:** TK-1: xalq maqollari, muqaddas kitoblardagi ibratli so'zlarni aniq va tushunarli bayon qila oladi; kattalar bilan so'rashishda odob-axloq bilan muloqotga kirisha oladi

TK-2: odobli bo'lishga shaxsiy namuna ko'rsatadi; haqorat va turli yomon so'zlardan, yomon odatlardan saqlana oladi.

**Mashg'ulot turi:** yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi, amaliy, nazariy, aralash, noan'aviy, ananaviy.

**Mashg'ulot uslubi:** tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, ko'rgazmali va boshqalar.

**Mashg'ulot metodi:** guruhlarda ishslash, "kim epchil-u, kim chaqqon", "ko'rsam tezroq o'rganaman", "muammo va yechim" shu kabi metodlar.

**Mashg'ulot jahozi:** mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

**Mashg'ulotning borishi:**

Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

Uya vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tkazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

### II. Asosiy qism:

Aziz o'quvchi! Urimiz davomida biz juda ko'p insonlardan yaxshilik ko'ramiz. Ota-onamiz, yaqinlarimiz, ustozlarimiz bizga faqat yaxshilikni tilaydilar. Inson o'ziga qilingan yaxshiliklarga albatta yaxshilik bilan javob qaytarishi kerak.

Ammo yomonlik qilganlarga qay tarzda javob qaytarish kerak? Yomonlikka yaxshilik bilan javob berish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. Agar sizga kimdir yomonlik qilsa, har qancha qiyin bo'lsa-da, unga albatta yaxshilik bilan javob qaytaring. Shunda u qilgan ishidan pushaymon bo'ladi, uyalganidan ikkinchi marotaba yomonlikka qo'l urmaydi.

«Temur tuzuklari»da shunday so'zlar bor: «Menga hasad qilib, o'ldirishga qasd qilgan kishilarga shunchalik sovg'a-in'omlar berib, muruvvat-u ehson ko'rsatdimki, bu yaxshiliklami ko'rib, xijolat teriga g'arq bo'ldilar». Bundan ko'rinish turibdiki, bobomiz Amir Temur o'ziga dushmanlik qilgan kishilarga ham yaxshilik qilib, ularni to'g'ri yo'liga boshlaganlar. Allomalarning quyidagi so'zlarini hamisha yodda tutishimiz darkor:

Dunyoda topayin desang omonlik,

Birovga zarracha qilma yomonlk!



O'quvchilarga quyidagi savollarni berib, ularni javoblari baholanadi.

1. Yaxshilik deganda nimani tushunasiz?
2. Nima uchun allomalar yomonlikka yaxshilik bilan javob qaytarish kerakligmi uqtiradilar?
3. «Yaxshilik» hikoyasini o'qib, mazmuniga diqqat qiling?
4. Ra'noning buvisi yaxshilikning foydasi haqida nimalar dedi?
5. Siz ushbu hikoyadan o'zingizga qanday xulosa chiqarib oldingiz?

### III. Yakuniy qism:

Dars yakunida o'quvchilar bilan birgalikda olgan bilimlarni umumlashtirilib, savollar bilan mustahkamlanadi. O'quvchilar rag'batlanriladi.

Sana: " " 20 -yil. Sinf: \_\_\_\_\_ Sinf rahbari: \_\_\_\_\_

### 3-mavzu: Yo'l harakat qoidalarini vujudga kelish tarixi (Yo'l harakat qoidalari)

#### I. Kirish:

**Sinf soati mashg'ulotning maqsadi**: Yo'l harakat qoidalarini tarixi va yo'l harakati qoidasiga rioya etish umr foydasi ekanligini turli misollar orqali tushuntirish.

**Axborotlar bilan ishslash kompetensiyasi** — media manbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishslashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta'minlashni, media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirish.

**O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi** — doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayoti davomida mustaqil o'qib-o'rganish, kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o'z xattiharakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko'nikmalarini egallash.

**Mashg'ulot turi**: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi, amaliy, nazariy, aralash, noan'aviy, ananaviy.

**Mashg'ulot uslubi**: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, ko'rgazmali va boshqalar.

**Mashg'ulot metodi**: guruhlarda ishslash, "kim epchil-u, kim chaqqon", "ko'rsam tezroq o'rganaman", "muammo va yechim" shu kabi metodlar.

**Mashg'ulot jahozi**: mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurorollari, elektron materiallar.

**Mashg'ulotning borishi**:

Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tkazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

#### II. Asosiy qism:

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar hayotga izchil joriy etila boshlandi. Respublikaning bozor iqtisodiyotiga o'tib borishi, xususiy mulkchilik va avtomobil sanoatining vujudga kelishi, chet ellar bilan teng huquqli iqtisodiy aloqalarning yo'lga qo'yilishi, fuqarolarning moddiy farovonligi ortib borishi tabiiy ravishda avtomobil yo'llarida va shahar ko'chalarida harakat miqdorining (yangi tayyorlanayotgan haydovchilar hisobiga) ortib borishiga olib kelyapti. Bir paytlar respublika bo'yicha har 1000 nafar aholiga 35 dona yengil avtomobil to'g'ri kelgan bo'lsa, bugungi kunda bu ko'rsatkich yanada ortib boryapti. Hozirda Toshkent shahri va viloyatining o'zida har 1000 nafar aholiga 100 donadan ko'p yengil avtomobil to'g'ri kelyapti.

Bu ko'rsatkichga hozirda foydalanylagentan yuk avtomobilari va avtobuslarning miqdori qo'shilsa, aholining ma'lum bir qismini va ularning yuklarini xususiy tashuvchilar tashiyotganini hisobga olinsa, sodir etilayotgan yo'l-transport hodisalarining 75% haydovchilarning aybi bilan sodir etilayotganini e'tiborga olinsa, haydovchilarni mtayyorlash va qayta tayyorlash masalasi – eng dolzarb masala ekanini ko'rish mumkin. Yosh oilalar va ulaming farzandlariga g'akamxo'rlikni kuchaytirish, ulami huquqiy va ijtimoiy muhofaza qilishni ta'minlash, shuningdek jismonan va har tomonlama rivoj topayotgan barkamol avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar hamda Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash orqali jamiyatning muhim bo'g'ini sanalmish sog'lom va mustahkam oila shakllanadi.



Ana shunday qator e'tiborga molik tadbirdar o'tkazilayotgan bir vaqtda, bolalar o'rtasida uchrayotgan baxtsiz hodisalaming oldini olish, ularsonini keskin kamaytirish dolzarb muammolardan biriga aylanib bormoqda. Ma'lumki, bola shikastlanishining oldini olishda, avvalo, oila a'zolarining xizmati muhim ahamiyatga ega. Chunki bola vaqtining asosiy qismini oilada yoxud maktabgacha ta'lim tashkilotida o'tkazadi. U yerda tarbiyalanadi, atrofdagilar bilan muomala qilishning dastlabki saboqlarini o'rganadi.

#### III. Yakuniy qism:

Dars yakunida o'quvchilar bilan birgalikda olgan bilimlarni umumlashtirilib, savollar bilan mustahkamlanadi. O'quvchilar rag'batlaniriladi.

*veb-saytimiz: Zokirjon.com*  
*Hujjat Word variantda beriladi.*

*Zokirjon Admin bilan*

*90-530-00-68 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz yoki nza4567 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.*

*Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi*

**39 listdan iborat 2-sinf o‘quvchilarga  
Sinf soatini to‘liq holda olish uchun telegramdan  
yozing.**



**Narxi: 20 ming so‘m**

**Telegram kanalimiz:**

**@Maktablar\_uchun\_hujjatlar**

**To‘lov uchun: UZCARD \*880\*9860230104973329\*summa#**

**Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**



### **DIQQAT!!!**

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To‘liq holda olganingizdan so‘ng:

Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet orqali veb-saytlarga joylamang.  
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA  
HIYONAT QILMANG.**